

NIKOHDAN AJRATISH OQIBATIDA VOYAGA YETMAGAN BOLALARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA.

*Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti, huquqta'limoti kafedrasida katta o'qituvchisi
Yuridik fanlar falsafa doktori (PhD)
M.S. Usmonova*

Annotatsiya: maqolada nikohdan ajratishda voyaga yetmagan bolalarning huquqlari muhokama qilar ekan, xalqaro tajriba qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, yaponiya, Koreya, Xitoy, Fransiya, AQSh kabi xorij mamalakatlarining nikohdan ajratish jarayonida bolalarning huquq va manfaatlarini qonun normalari bilan qanday tartibga solinishi o'rganildi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan bolalar, nikohdan ajratish, huquq, majburiyat, nomulkiy huquq, mulkiy huquq, tarbiyalanish, g'amxo'rlik.

Dunyoda nikohdan ajralish holatlari so'nggi o'n yillikda nihoyatda ko'payib, ayrim mamlakatlarda hatto 40-50 foiz dastlabki nikohlar bekor bo'lmoqda. Jumladan, "Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlarning oila qonunchiligi nikohdan ajratishni birmuncha qiyinlashtirgan bo'lsa ham, ushbu mamlakatlarda nikohdan ajralishlar kamida ikki barobarga ortgan. Bu borada Rossiya Federatsiyasi dunyoda uchinchi o'rinda egalab turgan bo'lsa, Osiyo qit'asida Xitoy bu ko'rsatkich bo'yicha yetakchilik qilmoqda"¹. Nikohlar bekor bo'lishining sabablari va oqibatlari, oilalar barbod bo'lishining voyaga yetmagan bolalar jismoniy va ruhiy kamol topishiga ta'siri, bu jarayonda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va rolini chuqur tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xalqaro hujjatlardan biri hisoblangan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 23-moddasi 4-qismida taraflar o'rtasidagi nikoh bekor qilingan hollarda barcha bolalar zarur darajada himoya qilinishi kafolatlangan².

Voyaga yetmagan bolalarning bir qator shaxsiy mulkiy va nomulkiy huquqlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- 1) bolaning yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rlikidan foydalanish huquqi
- 2) ota-onasi (va boshqa qarindoshlari) bilan ko'rinish huquqi
- 3) ism va fuqarolik huquqi
- 4) ta'lim olish huquqi
- 5) zo'ravonlikdan himoyalash huquqi
- 6) tenglik, fikr va so'z erkinligi
- 7) dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish huquqi
- 8) tibbiy yordam va sog'liqni saqlash huquqi va boshqalar.

Xitoy Xalq Respublikasining "Nikoh to'g'risida"gi Qonunida bola huquqlari o'ziga xos tarzda aks etgan bo'lib, unga ko'ra ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar nikohning buzilishi bilan tugamaydi. Ajralishdan keyin, bu bolalar otasi yoki onasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishidan qat'iy nazar, ikkala ota-onaning bolalari bo'lib qoladilar. Nikoh buzilgandan keyin ota-onalar bolalarni saqlash va tarbiyalash bo'yicha huquq va majburiyatlarni saqlab qoladilar³.

¹ <https://wisevoter.com/country-rankings/divorce-rates-by-country/>

² Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt // <https://lex.uz/docs/-2640479>.

³ Xitoy Xalq Respublikasining "Nikoh to'g'risida"gi Qonuni 36-moddasi // <https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/37821/96285/F1637379354/CHN37821.pdf>

Mazkur qonunning 36 – 38-moddalariga ko‘ra, ajrashgandan keyin emizikli bolalarni emizuvchi onaga topshirish kerak. Er-xotinlar o‘rtasida bolalarning yashash joyi to‘g‘risida kelishmovchiliklar emizikli bo‘lmagan bolalarga nisbatan kelishuvga erishishning iloji bo‘lmagan taqdirda, Xalq sudi bolalarning huquq va manfaatlari asosida qaror qabul qiladi. Agar nikohdan ajratilgandan keyin bolalar bir tomon bilan yashashga qoldirilsa, boshqa tomon bolalarni yashash va o‘qitish uchun barcha zarur harajatlarni to‘liq yoki qisman o‘z zimmasiga olishi kerak. Shuningdek, bolalardan alohida yashayotgan taraf bolalari bilan ko‘rishish huquqiga ega bo‘lib, agar bu ko‘rishish bolaning jismoniy yoki ruhiy salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan taqdirda, Xalq sudi qonun hujjatlariga muvofiq tashrif buyurish huquqidan foydalanishni cheklashi kerak.

Bundan farqli o‘laroq, Yaponiyada nikoh bekor qilingandan so‘ng, turmush o‘rtoqlar, ota-ona va bola o‘rtasidagi barcha huquqiy munosabatlar bekor qilinadi. Yaponiyada yana bir o‘ziga xos xususiyat shundaki- bu nikoh tugagandan keyin, bolani o‘z qaramog‘ida saqlashni ro‘yxatdan o‘tkazdirib qo‘yish hisoblanadi. Shunday qilib, Yaponiya Fuqarolik kodeksida ajrashgandan keyin bolani birgalikda asrab olish normalari nazarda tutilmagan, bu esa, bola shaxsini shakllantirishda salbiy oqibatlariga olib keladi. Ota-ona huquqlarini har ikkala turmush o‘rtoqlarda qoldirish va bolaning shakllanishi hamda rivojlanishida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum qilmaslik to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun Yaponiya qonunchiligida ajrashgandan keyin bolani boqish va tarbiyalash to‘g‘risida qoidalarini kiritish talab qiladi.

Izlanishlar davomida shu narsa aniqlandiki, Yaponiya qonunchiligida er va xotin nikohdan ajrashgach, bola huquqlari bilan bog‘liq o‘ziga xos jihati mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, Yaponiya Adliya vazirligining “Bolalarni parvarish qilish bo‘yicha shartnomalar tuzish yuzasidan qo‘llanma va savol-javoblar” nomli normativ hujjati belgilangan bo‘lib, unda bola bilan ko‘rishib turish tartibi, bolani qo‘llab-quvvatlash kabi tartib qoidalar belgilangan bo‘ladi. Shartnomaning shakli esa “Bolalarni parvarish qilish bo‘yicha shartnomalar tuzish yuzasidan qo‘llanma va savol-javoblar” nomli normativ hujjatida aks etgan⁴. Yaponiyada bola huquqlari va manfaatlari bilan bog‘liq ushbu tartib qoidaning joriy etilganligi, kelgusida sudlarda bola bilan bog‘liq bir nechta nizolarning olidini olishga, bolaning ruhiyatiga salbiy ta‘sir etib, sudma-sud yetaklashib yurishning oldini olishga xizmat qilishini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, Yapon amaliyotining yana o‘zga xos bir jihati, er va xotin nikohdan ajrashgandan so‘ng, bolani o‘z tarbiyasiga olgan taraf kelgusida davlatdan nafaqa olish huquqi paydo bo‘ladi. Jumladan, moddiy yordam tariqasidagi nafaqa, bolani rivojlantirish uchun nafaqa, bolani tarbiyalash uchun nafaqa kabi davlat yordam ajratiladi⁵.

Koreya xalq demokratik respublikasi Oila kodeksining 22-moddasiga ko‘ra esa, nikohdan ajrashgan taqdirda bolaning tarbiyasi bilan kim shug‘ullanishi haqidagi qaror to‘g‘risida bayon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra, nikohdan ajrashgan taqdirda, bolaning qiziqishlarini hisobga olgan holda, sobiq er-xotindan qaysi birining bolani tarbiyalaydi, degan savolga o‘zaro tarflar kelishgan bo‘lishi kerak. O‘zaro kelishuvga erishishning iloji bo‘lmasa, qaror sud tomonidan qabul qilinadi. 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar onasining tarbiyasida bo‘lgan taqdirda, agar biror sabab bo‘lmasa, boshqacha qaror qabul qilinmaydi.

Koreya xalq demokratik respublikasi Oila kodeksining 27-moddasiga ko‘ra ota-onaning bolani tarbiyalash majburiyatlari belgilangan.

Koreya va Yaponiya qonunchiligida nikohdan ajrashayotgan er va xotin albatta bolaning kimda qolish masalasini hal etib ketadi yoki kelishuv qiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, sud tomonidan bu masala nikohdan ajrashish vaqtida hal etiladi.

Koreya xalq demokratik respublikasi Oila kodeksining 23-moddasida aliment majburiyatlari ko‘rsatilgan va bolani tarbiya qilmayotgan tomon mehnat faoliyati bilan

⁴ 「子どもの養育に関する合意書」作成フォーム // <https://docs.google.com/forms/d/e/>

⁵ 離婚したい時どうしたらいい？準備から離婚手続きまで弁護士が解説 // <https://vs-group.jp/lawyer/ricon/96.html>

shug‘ullanish uchun dastlabki yoshga yetguniga qadar ikkinchi tomonga aliment to‘lashi shart. Agar bolani tarbiyalayotgan tomon rad etsa, aliment to‘lashi mumkin emas.

Ko‘pgina mamlakatlardan farqli o‘laroq, Fransiyada oilaviy masalalar Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinib, unga ko‘ra nikohdan ajratish faqat sud tartibida amalga oshiriladi, bu oilaning jamiyat bir xujayrasi sifatida oila farovonligini himoya qilish bilan bog‘liqdir. (masalan Rossiya Federatsiyasi yoki Belorussiyada FHDYO organlarida ma‘lum bir shartlarga rioya qilgan holda nikohdan ajratishi mumkin). Nikohdan ajratish jarayonida taraflardan biri ikkinchisidan kompensatsiya yoki aliment undirishni talab qilishi mumkin⁶.

Fransiya Fuqarolik kodeksining 7-bo‘lim 227-moddasiga ko‘ra, nikoh quyidagi ikki holatda tugatiladi: 1. Er yoki xotinning birining vafoti tufayli; 2. Qonuniy tartibda ajralish. Kodeksning 229-moddasiga ko‘ra, nikohdan ajralish quyidagi asoslarga ko‘ra e‘lon qilinishi mumkin:

- taraflarning o‘zaro roziligi asosida; -birgalikdagi turmush tarzidagi o‘zaro kelishmovchilik tufayli;

- taraflardan birining aybli xatti-harakati tufayli⁷.

Fransiyada nikohdan ajrashgandan so‘ng er va xotinning farzand tarbiyasi va ta‘minotiga oid amaliyoti ham o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, agar ota-onalardan biri o‘z farzandlarining vasiyligini olmagan bo‘lsa, sud ularni boqish uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan aliment miqdorini belgilaydi. Aliment miqdori esa oilaning talab va extiyojlarini inobatga olgan holda belgilanadi. Fransiyada maxsus 2 ta institut mavjud bo‘lib: bu oilaviy nizolarni hal qiluvchi sudlar va voyaga yetmagan bolalar bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib hal qiluvchi sudlar⁸.

Fransiya Fuqarolik kodeksining 3-qismi “Nikohdan ajratishning bolalar uchun oqibatlarini” deb nomlangan bo‘lib, bu ushbu munosabatlar alohida bo‘lim sifatida belgilanganligi bilan alohida o‘rin tutadi.

Fransiya Fuqarolik kodeksining 286-moddasiga ko‘ra, nikohdan ajratishda ota va onalarning farzandlari o‘rtasidagi munosabatlari saqlanib qoladi. 287-moddasiga ko‘ra, Ota-onalik huquqlari birgalikda amalga oshiriladi. 287¹-moddasida kelishuv bitimi bo‘lmaganda yoki bu kelishuv bola manfaatlariga zid bo‘lgan taqdirda sudya bolani ulardan qaysi biri bilan yashashini belgilab beradi. Istisno tariqasida, agar bolaning manfaatlarini shuni taqazo etsa, sudya bolaning yashash joyini asosan qarindoshlari orasidan boshqa shaxslar bilan etib belgilashi mumkin, yoki agar buning imkoni bo‘lmasa, ta‘lim muassasasida etib belgilashi mumkin. Bolalar uchun ishonchli shaxs ularga g‘amxo‘rlik qilish va ta‘lim bilan bog‘liq barcha ishlarni bajaradi.

Germaniyada ham Fransiya kabi oilaviy huquqiy masalalar Germaniya Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Germaniya Fuqarolik kodeksining to‘rtinchi kitobi oila huquqi deb nomlanib, yettinchi bo‘limi aynan nikohdan ajratish va uning oqibatida kelib chiquvchi oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Germaniyada er va xotinning nikohdan ajralishni ularning farzandlari uchun shok holat hisoblanadi. Germaniya qonuniga muvofiq, ota-onalar bolaga nisbatan teng huquqlarga ega. Lekin har qanday holatda ham, qonunga ko‘ra har bir bolaga ota va onaning har ikkisi ishtirok etadigan to‘laqonli tarbiyalanish huquqi kafolatlanadi. Bola bilan bo‘ladigan muloqot cheklangan bo‘lishi mumkin emas⁹.

⁶ Семейное право во Франции // <http://ur-cons.ru/>

⁷ Fransiya Fuqarolik kodeksi // <https://docs.yandex.ru/>

⁸ O‘sha joyda.

⁹ Права ребенка при разводе в Германии // <https://scheidungskanzlei-online.de/>

Vasiylik huquqini qo'lg'a kiritgan taraf bolaning yashash joyini belgilashi, bola parvarish qiluvchi muassasalarni tanlashi, chet elga ketish yoki qolish shartlari va boshqalarni tanlashi mumkin¹⁰.

O'zbekiston qonunchiligida esa bunday vakolatlarni sud belgilab beradi.

Ota-ona bola bilan bir xilda muloqot qilish huquqiga ega. Muloqot qilish huquqi, boshqacha aytganda, tashrif buyurish bu bolaning o'z ota va onasi bilan doimiy aloqada bo'lish huquqi hisoblandi. Bu bolaning tug'ilganidan tortib to u voyaga yetguniga qadar amal qiladi. Agar ota va ona nikohdan ajrashgan taqdirda, ular bola bilan aloqa qilish uchun umumiy va o'zaro maqbul keladigan kelishuvlarni topishga da'vat qilinadi. Eng muhimi bu bolaning farovonligini himoya qilishi kerak bo'ladi. Agar ota va ona tinch yo'l bilan yechim topa olmasalar, u holda bolalar va ota onalar o'rtasidagi munosabatlar qanday tashkil etilishi kerakligi haqidagi qaror sud tomonidan qabul qilinishi mumkin¹¹.

Germaniya qonunchiligining ham e'tiborli jihati shundaki, garchand Fransiya qonunchiligi kabi, oila huquqi alohida huquq tarmog'i sifatida ajralib chiqmay, fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinsa-da, nikohdan ajratish jarayonida bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilish, uning huquq va manfaatlarini amalga oshirish haqidagi kelishuv bira to'la hal etiladi. Bordiyu bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda, sud o'z munosabatini bildiradi hamda bola huquq va manfaatlarini amalga oshirish tartibini o'zi belgilab beradi.

Xorijiy tajribani o'rganar ekanmiz, masalan Fransiya, Germaniya, Angliya o'z qonunchiligida bolaning huquq va manfaatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarilishida har qanday shaxslar bilan agar ular bolaning avval yashagan davrida ularga mas'ul bo'lgan hamda tarbiyasida ishtirok etgan bo'lsa, birgalikda yashash, ko'rish, ta'minot olish va boshqa huquqlarini tegishli normalar bilan belgilab qo'ygan. Ushbu holatni ikki tomondan ko'rish mumkin, bu bolaning o'sha shaxslar bilan biologik yaqinligida emas, balki shaxslararo munosabatlarni o'rnatganligi, ular o'rtasida hissiy rishtalarning mavjudligi, ular bilan doimiy muloqot o'rnatilganligidir. Ikkinchi tomondan esa, agar taraflardan biri boshqa shaxs bilan juft sifatida yashayotgan bo'lsa va bu bolaga salbiy jixatlarini ko'rsatsa, bolaning psixologiyasi kelgusida nuqsonli bo'lishi mumkinligini oldini olishdir. Ushbu o'rnatilgan tartib O'zbekiston qonunchiligiga ziddir.

Nikoh shartnomasiga nikohlanuvchi shaxslarning bo'lg'usi ota-ona sifatida bolaning ta'lim-tarbiyasi, ularni moddiy ta'minlash borasidagi huquq va majburiyatlarini kiritishga doir xorijiy mamlakatlar tajribasi haqida so'z yuritish o'rinli bo'ladi.

Aytish joizki, AQSh qonunchiligi bu borada ijobiy tajribaga ega. Amerika huquqiy tizimga xos bo'lgan pretsedentlar orqali har bir holatda bolaning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijobiy natijani hisobga olishga imkon beruvchi "Bolaning eng yaxshi manfaatlari" doktrinasi yaratilgan. Ushbu doktrinaga ko'ra ota-onaga bolani ma'lum vaqtga olib ketish, ota-ona bilan boshqa shaharga yoki boshqa turar joyga ko'chish huquqini beradi. Amerikalik olimlar oila va do'stlar bilan aloqa qilish huquqi bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydigan huquqlar guruhiga kiruvchi shaxsiy nomulkiy huquqlardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, AQSh huquqini qo'llash amaliyoti oiladagi nizolarni sud ishtirokisiz hal qilish konsepsiyasiga asoslangan. Ushbu usul Rossiya Federatsiyasida ham amal qilib, Rossiyada "Mediator ishtirokida nizolarni alternativ hal qilish tartibi (Mediatsiya jarayoni) to'g'risida"gi Federal qonun qabul qilingandan keyin amaliyotga joriy qilingan.

Yuqoridagi tajribalarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, har qaysi mamlakatda oila qonunchiligi, turli xalqaro konvensiyalar va xalqaro paktlar bolalarning huquq va manfaatlari ustunligiga asoslanadi. Bola o'zining huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi sababli huquq va erkinliklariga oson zarar yetishi mumkin bo'lgan shaxsdir. Shu

¹⁰ Ўша жойда.

¹¹ Права ребенка при разводе в Германии // <https://scheidungskanzlei-online.de/>

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

sababli oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni shunday tartibda o'ratish kerakki, avvalo bolaning huquqlari va manfaatlari buzilishiga salbiy ta'sir etuvchi holatlarni oldi olingan bo'lishi lozim. Buning uchun esa xalqaro tajribalarni o'rgangan holda qonun bo'shliqlarini to'ldirish bugungi kundagi dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Article 36 of the Law of the People's Republic of China "On Marriage"// <https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/37821/96285/F1637379354/CHN37821.pdf>
2. 「子どもの養育に関する合意書」作成フォーム // <https://docs.google.com/forms/d/e/>
3. 離婚したい時どうしたらいい？準備から離婚手続きまで弁護士が解説 // <https://vs-group.jp/lawyer/ricon/96.html>
4. Семейное право во Франции // <http://ur-cons.ru/>
5. French Civil Code// <https://docs.yandex.ru/>
6. The Criminal Code of the Federal Republic of Germany was adopted on May 15, 1871 and entered into force on January 1, 1872.
7. <https://www.international-divorce.com/prenuptial-agreements-in-france>
8. Гаспарян А.С., Атрохова Е.С. Брачный контракт. Гарантия семейного счастья. – Ростов Н/Д: Феникс, 2004. 75-с.